

RANG, SON, TABIAT ASHYOLARIGA OID RAMZIY OBRAZLAR VA ULARNING MA'NOLARI

Ismoilova Muxtasar Shakirovna

Andijon viloyati Shahrixon tumani

2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

“Davlat tili” fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda obraz asosiy maqsad, fikr va g'oyani ifoda etuvchi vosita hamda ishqiy lirikada an'anaviy oshiq va ma'shuqa, raqib va do'st obrazini tasvirlash, shuningdek, timsol-su'rat, naqsh, rasm, ramz, o'rnak, belgi, shakl, masal, misol, tushuntirish uchun yoki asos, dalil, isbot sifatida bir turli narsa, voqea – hodisadan keltirilgan ayrim na'muna asosida rang, son, tabiat ashyolariga oid ramziy obrazlar va ularning ma'nolari.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, timsol-su'rat, naqsh, rasm, ramz, o'rnak, belgi, shakl, masal, misol, tushuntirish uchun yoki asos, dalil, isbot sifatida bir turli narsa, voqea – hodisa rang, son, tabiat ashyolar.

Abstract. In this article, the image in fiction is a means of expressing the main purpose, thought and idea, and in romantic lyrics, the image of a traditional lover, lover, rival and friend, as well as emblems, patterns, paintings, symbols, for example, character, form, illustration, example, or something different as a basis, evidence, proof, event - color, number, symbolic images of natural objects and their meanings on the basis of some examples from the event.

Keywords: artistic image, emblem, pattern, picture, symbol, pattern, symbol, shape, parable, example, to explain or as a basis, evidence, proof, something different, event - event color, number, nature objects.

Аннотация. В данной статье образ в художественной литературе является средством выражения основной цели, мысли и идеи, а в романтической лирике образ традиционного любовника, возлюбленного, соперника и друга, а также эмблемы, узоры, картины, символы, например, характер, форма, иллюстрация, пример или что-то иное как основа, доказательство, доказательство, событие - цвет, число, символические изображения природных объектов и их значения на основе некоторых примеров из события.

Ключевые слова: художественный образ, эмблема, узор, картина, символ, узор, символ, форма, притча, пример, объяснение или нечто иное как основа, доказательство, доказательство, событие - событие, цвет, число, объекты природы.

Badiiy adabiyotda obraz asosiy maqsad, fikr va g'oyani ifoda etuvchi vosita .
“Obraz poeziyaning na vaqt, na poetic o'zgarishlar xavf sola oladigan eng ustuvor, balki yagona elementidir”.

Badiiy obrazni shakllantiruvchi muhim omillaridan biri obrazlilik hisoblanadi. Obrazli ifoda, obrazli nutq deganda, odatda, tor ma'nodagi tasviriy vosita, ibora va ko'chimga boy nutq tushuniladi. Keng ma'noda obrazlilik davr, voqelik, manzaralar, ruhiyat tasvirini tasavvurda jonlantirish hodisasidir. San'atning ba'zi turlarida tasvir ob'ektlari cheklangan. “Ammo badiiy adabiyotda hayotning barcha tomonlarini jonli obrazlarda aks ettirish mumkin. Buning boisi adabiyotning tasvirlash quroli so'z mulking o'zidan iborat ekanligidir”.

Obrazlilik-so'z orqali tasvir yaratish san'ati. Obrazli ifoda qaxramonlar, voqealarni o'quvchi ko'z oldida gavdalantirib, ularning ruhiy kechinmalarini o'z boshidan kechirgandek taasurol uygotadi. Kuchli obrazlilikka yo'g'irilgan asar tashbexu istioralarsiz-avtologik usullar yaratilganda ham badiiy qiymatini yo'qotmaydi. Uvaysiyning: “Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim” misrasi yoki Mashrabning: Namangan shahridan, do'stlar mening yoronlarim keldi, otam birla onamni bilguvchi mehmonlarim keldi. Bayti badiiy tasvir vositalari, ko'chimgasiz, to'g'ridan-to'g'ri oddiy hayotiy detallar asosida yozilgan. Mashrab Uvaysiydan farqli o'laroq, sog'inch so'zini qo'llamacdan ham bu tuyg'uni chuqur aks ettira olganki, bu obrazlilik mahsulidir.

She'riyatda shoir oniy, bir lahzali kechinmalar orqali yuzaga keladigan butun g'oyaviy-estetik mazmunni obrazga singdirishi, ruxiy xolat, xis tuyg'ular tadrijininamoyon eta olishi kerak. Ishqiy lirikada bu jihatdan an'anaviy oshiq va ma'shuqa, raqib va do'st obrazi yetakchilik qiladi. Poetik timsol va ramzlar shu

to'rt obrazdan birining g'oyaviy-estetik qarashlarini himoya qilish uchun xizmat qiladi.

“BULBUL”, “PARVONA”, “SAMANDAR”, “ CHUG”, “ OSHIQ”, “ TABIB”, “ GUL”, “ SHAM” kabilar ma'shuqa, “ SABO”, “ SETOR”, “TANBUR” esa do'st, “ XOR”, “ TO'FON”, “ CHARXI KAJRAFTOR”, “ MORU AJDAXO” raqibga qiyoslanadi.

Adabiyotshunoslikda simvol atamasi timsol, ramz, ba'zan majoziy obrazlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Ammo badiiy obraz, poetic timsol va ramz orasida keskin farqlar mavjud. Umuman, timsol va ramzlarni obraz doirasida ma'lum bir g'oyaviy-badiiy mazmun yuklatilgan, muayyan an'anaviy ma'nolarni anglatadigan obrazni yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. RAMZ(simvol) majoz turlaridan biridir. “SIMVOL” yunoncha so'z bo'lib, qadimgi paytda yunonlarda maxfiy tahrilat a'zolarining bir-birini tanib olishi uchun qo'llanilgan shartli belgi bo'lgan. Ramz tasavvur etilishi mushkul bo'lgan hodisa va tushunchalar ifodasi uchun yaqqol ko'rinadigan narsalarning ko'chma ma'noda qo'llanishidir.

Misollar: oq kabutar-tinchlik ramzi, sariq gul-ayriliq ramzi, tun-hasrat ramzi, may-hayot ramzi, burgut-mag'rurlik ramzi.

Hamid Olimjonning quyidagi misralarida ham ramz qo'llangan;

Men bir qora kunda tug'ildim,

Tug'ildimu, shu on bo'g'ildim...

O'lkada tun ko'rardi umr,

Go'shalarga tushmas edi nur.

TIMSOL-su'rat, naqsh, rasm, ramz, o'rnak, belgi, shakl; masal, misol: tushuntirish uchun yoki asos, dalil, isbot sifatida bir turli narsa, voqea-hodisadan keltirilgan ayrim na'muna.U ikki xilda shakllanadi. Birinchisi-aslida biror bir asarning mustaqil obrazi sifatida mavjud bo'lgan timsollar. Obrazning eng yetakchi xarakteri, ya'ni alohida ajratib, bo'rttirib ko'rsatilgan jihati uning

timsoliga aylanishiga hizmat qiladi. She'riyatga ko'chganda osonlik bilan o'zlashadi, an'anaviylashadi. Mardlik, go'zallik, baxt kabi ma'lum bir tushunchaga aynan teng kelgani uchun timsollar keng qamrovli fikrni ixcham ifodalash imkonini beradi. Masalan, Yusufi Kanon tilga olinishi u haqidagi qissalarga ishora qilib birgina qiyos bilan ma'shuqaning tengsiz go'zalligi ifoda etiladi. Xuddi shunday dostonda Majnun oshiq obrazi, she'riyatda esa ilohiy ishq timsoli, Xotamsaxovat, No'shiravon-adolat va hokazo. Ikkinchisi-ilohiy mavjudotlar, hayvonlar, qushlar, o'simliklar va hokazo tabiatiga ko'ra alohida - sifatida an'anaviylashib, keyinyozma adabiyotga ko'chgan. Masalan, yulduz, lola, g'uncha-go'zallik; arslon yoki shunqor-mardlik; tulpor, g'oz, turna-do'st, elchi timsoli sanalib, tashbeh, istiora yordamida shakllanadi. Poetik timsol lirik qahramonga yonma-yon qo'yib qiyoslanadi, ikkinchi holda esa u bevosita lirik qahramon o'rnida keladi. Uzuk, olma, mayiz, ro'mol kabi narsa predmet, ranglar, ayrim samoviy jismlar, tabiat hodisalari, jang qurollari esa ramz hisoblanib, obrazning fikr-maqsadini ifodalash yo'lida mahsus ko'rsatkich vazifasini o'taydi. Chunki ramz bu-belgi, alomat orqali mohiyatga ishora. U ko'rgazmalilik, badiiy shartlilikka suyunadi.

Olma otdim daryoga,
Qalqidi-yu, cho'kmadi.
Yorginamning o'tlari,
Lovulladi, o'chmadi.

She'rda olma-muhabbat ramzi. Muhabbat olmaning alohida ajralib turadigan xarakteri emas, shuning uchun u timsol bo'l olmaydi. Ijrochi o'z tuyg'ularini to'g'ridan- to'g'ri oshkor qilmay, "Olma otish" orqali maqsadiga ishora qilgan. Bu jihatdan, lirik qahramon va kuy, cholg'u munosabati alohida e'tiborga loyiq.

N.Kostamarov simvol- obraz va simvol-beigini bir-biridan farqlab, ramzlar sun'iy ravishda qabul qilinib, o'ta shartli mazmunga ega ekanligini ta'kidlagan. Timsol faqat adabiyot va san'atga daxldor tushuncha hamda tabiiy, asliy asoslarga

ko'ra vujudga keladi. Ramzlar esa ilmiy-texnik, ijtimoiy yo'nalishlarda ham uchraydigan, maqsadli tarzda yaratilgan mahsus belgilardir. Bayroq, gerb-davlat ramzi, Masalan, qon-tiriklik ramzi, hayotdan darak beradi. Xamzaning;

Qizil qonga bo'yqlmagan qizil tug'tuta olarmu?

Filhaqiqat, jondan kechmay, jononga yeta olarmu?

Baytida qizil qon-ozodlik yo'lida olib borilgan va olib borilajak janglarni anglatadi. Irfoniy she'rlarda esa "qon" "qon yig'lamoq", "qon bo'lmoq"-hasrat alomati.

Xulosa qilib aytganda, har qanday timsol, ramz lirik qahramon bilan ma'naviy-ruhiy yaqinlik, bir butunlikni hosil qila olishi shart.

Keyingi yillar she'riyatda an'anaviy poetik obrazlar: qizil gul, oq sochli qush, qop- qora maysalar, oppoq dardlar, yam-yashil xis, qora vatan, oppoq yurak, yashil zangor nafas, moviy rux, oppoq ko'z yoshlar, qip-qizil turna, oppoq sog'inchlar kabi ko'plab rang bilan bog'liq ramziy obrazlar qo'llanila boshlandi.

Ma'lumki, poetic ramzning kelib chiqishi va ranglar ramzi har bir xalqning og'zaki ijodi, urf-odati, uni o'rab olgan hududiy, ijtimoiy –siyosiy muhit bilan bevosita bog'liq. O'zbek adabiyotidagi an'anaviy poetik obrazlar –oq rang –yorug'lik, baxt, ishonch, umid ramzini; qizil rang ozodlik, baxtiyorlik, kelajakka bo'lgan komil ishonch ramzini ifodalasa, qora ranglar barcha xalqlarda hayotdagi singari qorong'ulik, g'am, qag'yu ramzi sifatida, sariq rang esa ayriliq, xijron ramzi sifatida ishlatilib, an'anaviy ma'no anglatuvchi tushunchalardir

Umuman olganda, rang bilan bog'liq va bog'liq bo'lmagan ramziy obrazlar ijtimoiy –tarixiy voqelikning mohiyatini ochuvchi, hayotimizning rang barang qirralarini turli poetik libosda aks ettiruvchi vositalardir.

She'riyatda qora ranglar asosan o'tmishning chirkin voqealari hayotdagi insoniy munosabatlarning ba'zi bir ko'rinishlari va inson taqdiriga tahdid solishlar ifodachisi sifatida qo'llanilib kelingan bo'lsa, bugungi kun jamiyat hayotida

ro'yberayotgan mudhishvoqealarni ham ramziy obrazlar orqali poetik ifodalashda shu rangga yana ehtiyoj sezilayotganining guvohimiz.

Qip-qizil turna kutdim o'ttiz yil,
Yechay deb bo'ynidan billur halqani.
Otamga shifolar so'rdim o'ttiz yil,
Raxm qani,
Shafqat qani?

Qip-qizil turna obrazidagi rangni bildiruvchi qip- qizil ortirma daraja sifati bizga "bobomeros" bo'lib qolgan. Bu ozodlik, erk ramzi bo'lgan qip qizilikning kutilayotgan turna bilan bog'liqligi esa baxor-yosharish, yangilanish, yashnash fasli. Qip –qizillik esa uning husniga husn bo'lib qo'shilishi shubhasiz.

Buyuk bobomiz Navoiyning "Sabbai sayyor" asarida qo'llangan rangni ifodalovchi leksik qatlam haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Navoiy o'zining bu asarida boshqa asarlardagi kabi so'zlar sinonimiyasi, xususan, ranglar sinonimiyasidan keng foydalangan. Bu sinonimik qatorni turli tildan kirgan so'zlar tashkil etadi.

"Sabaisayyor" da belgi ma'nosini ifodalovchi "qizil" so'zi quyidagi tarzda qo'llangan:

Mayda soqiy magar qilib edi hal,
Dardisardafiga qizil sandal.

Shuningdek, ol so'zi ham qizil, qirmizi ma'nosini ifodalash uchun ishlatilgan: sarvi gulchexr qildi istiqbol,

Gul kibi barcha raxti xullayi ol.

Bu baytdagi gul so'zi fors tojikcha bo'lib, o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda ham qo'llaniladi. Navoiy mazkur so'zning tub hamda yasama shakllaridan qizil ma'nosini ifodalash uchun keng foydalanilgan:

Ayladi mayl gulruxi sori,
Ko'rdi ashkin yuzida gulnori.

Ushbu baytning birinchi misrasida yasma gulrux (gul yuzli)-qizil yuzli, ikkinchi misrada esa gul (qizil), nor(qizil), ya'ni yuzida qonli ko'z yoshima'nosida ishlatilib, ma'no bo'rttirib ko'rsatilgan.

Sho'x ila qildi no'sh gulgun mul,

Mul alar chexrasin qilib gul gul.

Bu baytdagi gulgun so'zi asli qizil rangli, pushti rang ma'nosini anglatsa-da, baytda tez-tez, chiroyli, yarashig'li ma'nosida, gul-gul esa chiroyli, qip qizil ma'nosida ishlatilgan.

Barg poetic o'zbek she'riyatda ham, rus klassik poeziyasida ham ma'lum badiiy-estetik yuk tashuvchi vosita sifatida keng ifoda etilgan. U ko'pincha yor hajrida o'rtangan oshiqning zafaron yuzi, turli sabablar bilan umri so'nib, xazon bo'layotgan shaxs timsoli, umuman g'am-anduh so'niq kayfiyat, xazonlik ramzi sifatida poetik ma'no kasb etadi. Boburning "Xazon yaprogi yanglig' oy yuzing xajrida sirg'aydim" misrasi bilan boshlanuvchi mashhur g'azali fikrimizning dalili bo'la oladi. Ruspoeziyasining "oltin davri"ga mansub shoir M.Yu.Lermontov she'riyatida ham "Barg" poetik obraziga duch kelamiz. Shoirning ba'zi she'rlarda "ko'k barg" yashil yaproq ramzlari tiriklik, navqironlik, pushti panoh ma'nolarini ifodalasa quyidagi misralarda esa muhit, zamona zayli, qismat xarob qilgan, ezgan hamma narsalar- shaxs uning orzu- umidlar, intilishlar, ezgu ishlari-yashin urib, chirt uzilgan barglarga qiyos qilinadi.

Bu dargohda har narsani ezmishdir qismat,

Tubsiz dengiz labidagi eshik shox sifat.

Ular xuddi oqar suvda suzgan darbadar,

Yashin urib chirt uzilgan bir bargga o'xshar.

Mustadid tuzum bilan muhosasizlik, erksizlik va adolatsizlikdan norozilik, unga qarshi isyon, o'z muhitiga begonalik-shoir Lermontov uchun qismat. Bu qismat uning o'z Vatanidan surgun qilinishga sabab bo'ladi. Bu ko'rgulik bilan

bog'liq tuyg'ular shoirning "BARG" she'riga ko'chdi.
Eman bargi uzilib tushdi o'z butog'idan,

Cho'lda piri-piray ketdi bo'ronda titrab dir-dir.

So'ldi sovuq dastidan ham g'urbat qiynog'ida.

Sergey Yesenin she'rlarida ham BARG poetik obrazning rang-barang ko'rinishlari mavjud. Shoir she'rlarda "zafzron barg", "shamol uchirayotgan qoramtir burglar" "daraxtan jimgina to'kilayotgan burglar", "qumga ko'zyosh to'kib yotgan yaproq" kabi tasviriy vositalar juda ko'p uchraydi. Ularning har biri lirik qahramonning turfa ruhiy holatlari, kechimmalari va tuyg'ularini yorqin ifodasi uchun xizmat qiladi. U bir she'rda qishloqda yolg'iz mung'ayib qolgan onaizorni eslaydi, uni sog'inadi va yo'lga ko'z tikib o'tirgan onasiga ruhan tasalli beradi.

Lekin xira ko'zlaring bilan,

Buncha g'amgin boqma onajon.

Yetar kulfat, yetar g'am, alam,

Tushun hayot aldoqlarini.

Mayus qolur hatto daraxt ham,

Yo'qotganda yaoroqlarini.

Sherdagi ma'yus qolgan daraxt- ONA, yo'qotilgan yaproqlar-uning farzandlari ramzini ifodalaydi.

N. Karimovni ma'lumot berishicha, 20-yillarda Moskvaning Tver ko'chasidagi 17-uyda joylashgan "STOYOLO PEGASA" (g'irko'k xujrasi) kafesi darvesh rus shoirining doimiy manshatgohi bo'lgan. Kafe devoridagi 2 ko'zgu o'rtasiga oltin sochli S. Yesenin yuzi tasviri, ostiga yuqoridagi bayt yozib qo'yilgan. Shoir o'limidan keyin Moskvaga o'qishga borgan Usmon Nosir mazkur kafeni ziyorat qilgan. Yesenin shuhrati yosh o'zbek shoirida kuchli taasurot qoldirgan.

Quyidagi satrlardagi “kuz” “keksa bog’bon” “za’faron barg” poetik obrazlari, bargning uzib tashlanishi kishida o’z xatti- xarakterlarini biror masalada jilovlay olmagan, g’oyat g’ururli, muholiflari sonsiz, sarkash shoir o’z fojiviy qismatini oldindan sezgan, his qilgan, degan tasavvur paydo qiladi:

Uzib tashlar bir kun kuz-ketsa bog’bon,

Mening boshimdagi za’faron bargni,

Usmon Nosir she’riyatida BARG poetik obrazi turfa vazifalarini bajaradi. Bir qator she’rlardagi peyzaj va portret tasvirida, lirik qahramon ruxiy holatlari, tuyg’u va kechimalari ifodasida ham BARG ramziga murojaat qilinganligini ko’ramiz. “burglar musiqasi bir shirin”. “Boshim uzra barg shitirlaydi”, “oyning batis etagi tog’ning cho’qqisidan yirtilib pastga yaproq kabi pirillab ketdi” kabi misralarda go’zal qiz portretini chizish sifatida kelgan.

Muhabbatxon uyg’onar yana...

Shu dam, bilmam, na hayol kechdi,

Barg uzildi, barg betidagi –

Oyparcha ham uilib ketdi.

Shoir “Kumush kabi burglar dildirar” “Gullar ham bargini qayirdi asta” kabi o’rinlarda esa barg biln bog’liq jonlantirishlar hosil bo’ldi “NAXSHON” dostonida ham yetim qizaloq Naxshonning holati, ruxiyati, darbadarligi, sarson sargardonligi barg ramzi orqali ta’sirli chizilgan:

Suv betidan oqqan, Alam halqumimdan

Xay, sap-sariq barg,

Tutmasa yig’lab,

To’xta, hayolimni

Yuragimni hasrat

Olib qochmay tur

Nayzasi tig’lab.

Men ham ro’molimni

Senga kelib, ey barg,

Tashlay a’zaga

Rost aytarmidim?

Suv betidan oqib borayotgan sap-sariq barg-yetim qiz Naxshonning taqdirdoshi xasratdoshi. Ikkisi ham yetim darbadar. “onajon” lab yig’lab

bog'lardan o'tayotgan Naxshon ko'ziga bog'lar ham sap sariq ko'rinadi, ya'ni bog'lar ham uning dard sarg'aytirgan yuzi kabi:

Yig'lab bog'lar o'tdim,

Barglar sap sariq.

Qismatdoshlari she'rlarida ko'rganimiz kabi Usmon Nosir she'riyatida ham "bargning uzilishi" fojaviylikni anglatuvchi holatlar uchraydi. Shoir otasidan juda erta ajragan bo'ldi yetimlik azobini tortdi. Bu azob uqubatlar bilan bog'liq kechinmalar, iztirobli tuyg'ular ifodasi shoirning ko'plab she'r va dostonlarida mavjud. Usmon Nosir "oq yuvib tarab" nomli she'rida onasiga murojaat qilib, otasining bevaqt o'limini ramzlar vositasida chuqur qayg'u bilan quyidagicha xotirlaydi:

Mehribonimyodga tushdi,

Sarg'ayib, yerga tushgani

Birr kuni kuz naxori,

Bir ko'm-ko'k yaproqning.

Kuz- xazon fasli, nabobat olamida hayotning trikchilikning so'na boshlashi, bu fojaviylik. "sarg'ayib yerga tushgan ko'm-ko'k yaproq" tashbehi bu fojaviylikni yanada kuchaytirmoqda.

U.Nosirning "BOG'IM" nomli mashhur sherida ham BARG poetik obrazi bilan bog'liq fojaviylik ifodasi bor. Bu she'rdam ham bargning uzilib tushishi o'limdan xabar beradi.

Bargday uzilib ketsam,

Unutmas meni bog'im.

Barg poetik obrazi ham o'zbek, ham rus xalqi poeziyasi uchun tipik ramziy vosita sanaladi.

Yangi davr she'riyati uchun asos bo'lgan omillardan biri ming yilliklar osha istifodaetilib kelinayotgan daraxt, tosh, suv, tuproq, yomg'ir, bulut singari tabiat unsurlarining turli ma'no qirralarining kashf etilayotganida poetik obraz yoki lirik qaxramon orasidagi o'zaro yaqinliklarni o'tmish-men-kelajak zamon nuqtai nazarida o'rganmoqjoiz.

Qadimdan tosh saroy, qal'a va baland binolarni qurishda qurilish materiali sifatida ishlatib kelingan. Jaxon xalqlari diniy e'tiqodi, magik tasavvurida toshning turli xil jilolarni ko'rish mumkin.

Tuproq singari tosh ham Ahmad Yassaviy hikmatlardagi ramziy obrazlardan. Bu obrazning o'zbek adabiyotiga kirib kelishi va ma'lum mavqeiga erishganligining o'ziga hos diniy, axloqiy, falsafiy va mifologik asoslari bor.

70-80-yillar shoirlari ijodida tosh timsolining ko'plab ma'no qatlamlari zuhr topgan. A. Oripov toshning sirli tug'yonlari haqida so'zlasa, Rauf Parfi toshning buyukligiga ishonch bilan qaraydi. Shavkat Raxmonesa, toshni muqaddas deb biladi. Shu bois u topgan tosh "gullaydi". Shunday qilib tosh timsoli negizidan tosh poetik obrazi o'sib chiqadi.

Yangi davr lirikasida poetik obraz darajasigacha ko'tarilib, ramziy –majoziy ma'no kasb etgan TOSH erkinlikka, xurriyatga tashna xalqimizning niyatlarini, orzu-o'ylarini, istaklarini o'zida jamladi. A. Oripovning "Ma'lomat toshlari" Rauf Parfiyning "shoir qismati" Shavkat Raxmonning "gullayotgan tosh" to'g'risida so'zlab, shunday yozadi.

Manavi qora tosh --

Vaqt kaftlarida

Trillion martaba kichraytirilgan tun --

Jonsizday yotarkan, o'tkir ko'zimga

Tobora shubhali ko'rinar hart un --

Go'yoki jonliday, go'yo bir kuni

To'satdan gurkirab gullaydiganday

Go'yoki hozircha o'tmas ko'zlardan

Sirini yaishrib kuylayotganday.

Mangu harakatning yukin tashirkan

Zo'r berib uxlaydi "qay asr qulay"

Sirin ochsa bo'lar qaysi asarga.

Darxaqiqat, qora toshning sirli va tabiiy hususiyatlari haqida J.Frezer shunday ma'lumot bergan "qadimdan arablar toshga sig'inib kelishgan. Hozirgi kunda ham Makkadagi qora tosh islomga sig'inuvchilarning muqqadas va markaziy ziyorotgohi hisoblanadi" Soxibqiron Amir Temur hazratlarining qabrlariga qo'yilgan tosh ham muqaddas hisoblanadi. Ana shu toshning tarixiy taqdiri haqidagi ma'lumotlar ham anchagina.

Lirik matndan lirik qaxramonning ko'ziga "shubhalidey" "jonlidey" gullayotgandey ko'rinayotgan toshning dildan sifatlari his etilayotgan "qora tosh"ning sir asrorlarini ochish uchun "Qaysi asr, qaysi zamon" qulayligini o'ylaydi. Hamda o'zi javob izlashga kirishadi:

Tosh ham gullarim deb,
Minglab kaltabin,
Gurzisini do'layib yig'ilgan paytda
Mardona iljayib, ko'rasiz dedim,
Bir kuni bu tosh albatta.

Lirik qahramon "mardona" tarzda toshning gullashiga albatta ishonadi:

She'riyatimizda keng qo'llaniladigan "tuproq" obrazining badiiy mohiyati, avvalo Vatan tushunchasi bilan bog'liq. Xassos shoir Ahmad Yassaviyning "boshim tufroq, o'zim tufroq jismim tufroq xaq vasliga yetarman deb ruxim mushtoq" baytni tahlil qilgan adabiyot shunos I.Haqqulov haqida: "tuproq nima? Tuproq - Vatan. Tuproq necha yuz yillardan buyon ne-ne farzandlariniquchog'iga bosib kelayotgan mushfiq Zamin shuning uchun biz uni e'zozlab ona tuproq deymiz I.G'ofurov qayd qiladi. Tuproqni Vatan deb bilish A.Oripov she'rlarida o'ziga xos badiiy talqinga ega:

Nechun boshing egik, nechun qadding ham,
Nechun nigohingni tortadi tuproq?
Mening yer ustida tanishlarim kam,
Mening yer ostida do'stlarim ko'proq.

Lekin qaxramon “qaddini ham” qilib, “nigohini tortadigan tuproq”-Vatan timsoliga aylangan zamin. Tuproq obrazi Vatanni anglash, unga bo’lgan munosabatlarni oydinlashtiruvchi badiiy vosita sifatida qo’llanilyabdi.vatan tuproqqa,farzandlarga munosabat X.SHaripovning “tuproqqa qasida” she’rida chuqur taxlil etiladi. Har qanday odamning kimligi uning tuproqqa bo’lgan munosabatida ko’rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O’zbek tili va adabiyoti”jurnali. 2005-2008-2013-yillar.
2. Safo Matjonov “Adabiyot” fanidan qo’llanma 2011-yil.